




2022 yil yanvar - mart
oylarida
Sirdaryo viloyatida
xizmatlar sohasining
rivojlanishi

2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi - milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilmahilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqt ni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli hildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar - mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1137,2** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **185,6** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **113,4 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar - mart oylarida)

**1137,2 mlrd.
so'm**

113,4 %

**185,6 mlrd.
so'mga**

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi

2022- yil yanvar- mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar - mart oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	1137,2	113,4
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	67,2	119,7
Moliyaviy xizmatlar	372,2	128,6
Transport xizmatlari	154,0	106,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	145,7	106,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	26,0	103,2
Savdo xizmatlari	307,1	105,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	27,9	107,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	42,4	98,3
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	21,6	110,6
Ijara xizmatlari	24,6	76,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	26,8	108,2
Shaxsiy xizmatlar	22,7	109,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	10,5	125,0
Boshqa xizmatlar	34,2	133,3

2022- yil yanvar - mart


Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan past ko'rsatkich



Nisbatan yuqori ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2022- yilning yanvar - mart oylarida ularning ulushi 32,7 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar savdo (27,0 %), transport xizmatlari (13,5 %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (5,9 %) qayd etildi.

2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **0,8 %** ga yetdi

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - mart oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **30,4 %** ini tashkil etgan. 2021- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **0,8 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatda texnik jihozlanish darajasining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoxda.

2022- yilning yanvar - mart oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlarida (28,6 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlarda (25,0 %) qayd etildi.

Buning sababi, korxona va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatilishi bilan bog'liq.

2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da




Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - mart oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan –127,4 %.

Boshqa xizmatlar esa ushbu davrda pasayish kuzatilgan – **104,1 %.**

2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar

**Transport xizmatlarining o'sish sur'ati, % da
(2022- yil yanvar - mart)**



2022- yilning yanvar - mart oylarida transport xizmatlarining yuqori o'sishiga Xovos (113,2 %), Sayxunobod (112,9 %) shuningdek, Mirzaobod tumanlari (99,8 %) ga erishildi.

Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining biroz o'sish sur'ati Boyovut (106,2 %) tumanida qayd etildi.

Transport xizmatlarining ko'rsatilgan eng yuqori ulush ko'rsatkichlari Guliston (29,3 %) va Yangiyer (16,4 %) shaharlariha hamda Sirdaryo (17,4 %) tumaniga to'g'ri keldi.

Eng past ulush ko'rsatkichi Shirin shahrida qayd etildi (1,4 %).

2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar - mart oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **27,0 %** ni tashkil etib, bu esa **307,1 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - mart oylarida ularning hajmi 263,5 mlrd. so'mga yoki umumiylajmi hajmning **27,7 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

263,5

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

307,1

101,7

O'sish sur'ati, % da

105,3

2021- y. yanvar- mart




2022 y. yanvar - mart

2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uch qismini, aniqrog'i **66,5 %** ni tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi
(2022- yil yanvar - mart oylarida)**




Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - mart oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **66,5 %** ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar

**Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yilning yanvar - mart oyidagi)**



- Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari)

2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdo xizmatlarining eng katta ulushi Boyovut (**80,9 %**) va Sardoba tumanlarida(**82,4 %**), Yangiyer shahrida (**79,5 %**), Oqoltin (**78,7 %**) tumanlarida kuzatilmoqda.



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - mart oylarida chakana savdo ulushi Sardoba tumanlarida maksimal darajaga yetgan – **83,0 %**.



Shirin shahrida bu ko'rsatkich nisbatan past. Bu yerda chakana savdo ulushi **28,0 %** ni tashkil etdi. Biroq, bu shaharda ulgurji savdoda xizmatlar ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) ancha katta – **70,0 %**.

Sardoba – **6,1 %** va Oqoltin – **6,1 %** tumanlari esa nisbatan kichik ulushga ega.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar – mart oylarida Shirin shahrida ulgurji savdo ulushi **69,8 %** ni tashkil etdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidagi xizmatlarning nisbatan yuqori ulushi Oqoltin (**15,2 %**), Xovos (**11,8 %**) Sardoba (**11,5 %**), Guliston (**10,6 %**) tumanlarida qayd etildi.



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - mart oylarida ushbu xizmat turining salmoqli ulushi Oqoltin tumaniga to'g'ri kelgan – **14,6 %**.

2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar - mart oylarida)

2022- yil yanvar - mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **372,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar - mart oylarida ularning hajmi **288,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **32,7 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar – mart oylarida ularning ulushi **30,4 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **83,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar - mart oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **128,6 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar – mart oylarida ularning o'sish sur'ati **127,4 %** ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **94,2 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **2,8 %** ini tashkil etdi.

2022- yilning yanvar - mart oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **3,0 %** oralig'iда qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2022- yil yanvar – mart oylarida)**



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - mart oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **94,6 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,0 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,4 %**.

2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2022- yilning yanvar - mart oylarida)

O'sish sur'ati

2022 - yilning yanvar - mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **67,2** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2021- yilga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sish sur'ati **119,7 %** ni tashkil etgan.

Hajmning o'sishi

11,3 mlrd.
so'mga

119,7 %

67,2
mlrd. so'm

5,9 %

Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar - mart oylarida ushbu xizmat turi hajmi **55,9** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiylajmiy hajmining **5,9 %** ga teng bo'lgan.

O'sish sur'ati esa **118,5 %** ni tashkil etgan.

Xizmatlar hajmi

Jami hajmdagi ulushi


2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2022- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lif va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamонавиј ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar




2022- yilning yanvar – mart oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **42,4 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiyligi hajmining **3,7 %** ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar – mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **98,3 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning yanvar - mart oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi Sirdaryo (3,3 mlrd. so'm), Boyovut (1,5 mlrd. so'm), tumanlarida shuningdek, Guliston (30,6 mlrd. so'm) va Yangiyer (2,5 mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm (2022- yil yanvar – mart oylarida)



Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar – mart oylarida Guliston shahri bo'yicha ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi 30,6 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2022- yil yanvar – mart

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

20,8 mlrd.
so'm

26,0 mlrd.
so'm

Xizmatlar hajmi

2021- y.
yanvar - mart

2022- y.
Yanvar - mart

102,1 %

103,2 %



O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar - mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **5,2 mlrd. so'mga** ortgan.

2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2022- y. yanvar - mart

2021- y. yanvar- mart



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

2022- yil yanvar - mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **103,2 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar - mart oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **102,1 %** ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli hil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2022- y.
yanvar - mart

21,6
mlrd. so'm

1,9 %

110,6 %



Xizmatlar
hajmi

Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi

O'sish
sur'ati

18,2
mlrd. so'm

1,9 %

102,0 %

2022- yil yanvar – mart

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar - mart oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
Sirdaryo viloyati	1 137,2	113,4	112,0
<i>shaharlari:</i>			
Guliston	529,7	116,7	117,7
Shirin	27,6	112,0	103,3
Yangiyer	87,4	112,6	104,3
<i>tumanlari:</i>			
Boyovut	64,4	111,9	96,6
Guliston	44,5	111,6	105,2
Mirzaobod	51,4	99,8	103,1
Oqoltin	32,6	113,2	101,3
Sardoba	40,8	112,2	97,3
Sayxunobod	52,6	112,9	99,6
Sirdaryo	153,5	109,8	105,7
Xovos	52,7	113,2	121,6


2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, Respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar – mart oylarida)



2022- yil yanvar - mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Guliston shahri tashkil etdi – **46,6 %** (2021- yilning yanvar - mart oylarida – **46,1 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Shirin shahrida – **2,4 %** (2021- yilning yanvar - mart oylarida – **3,1 %**) qayd etildi.

2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

1291,1
ming so'm



Hajmnning o'sishi

187,8
ming so'mga

O'sish sur'ati

111,0 %

2022- yilning yanvar - mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1291,1 ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar – mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **111,0 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar - mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1103,3 ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar - mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 110,1 % da qayd etilgan.

2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**Xizmatlar
sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan
korxona va
tashkilotlar soni**



**2021- yilning
mos davriga
nisbatan ular
sonining o'sishi**

**Ularning
umumiyligi
sonidagi
ulushi**

20221- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**50,4 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **9,1 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **5,4 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,0%** ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **2,0 %** ni tashkil etdi.

Savdo – 50,4

**Boshqa turdag'i
xizmatlar – 32,0**

**Yashash va ovqatlanish
– 9,1**

Tashish va saqlash – 5,4

Axborot va aloqa – 2,0

Sog'liqni saqlash – 2,0


2022- yil yanvar - mart

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2022- yil yanvar - mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi 53,3 % ni tashkil etdi.

2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 80,2 % ga to'g'ri keldi.

